166	2	6	2	Ko'zga ko'rinuvchi nur spektrining eng uzun λ q0.76mkm to'lqin uzunligiga mos keluvchi foton energiyasining qiymati aniqlansin	$2.63 \cdot 10^{-19} \text{J}$	$26.3 \cdot 10^{-19} \text{J}$	$263 \cdot 10^{-19} \text{J}$	$2.63 \cdot 10^{-18} \text{J}$
167	2	2	3	Ko'zga ko'rinuvchi nur spektrining eng qisqa λ q0.4 mkm to'lqin uzunligiga mos keluvchi foton energiyasining qiymatini aniqlang	$5 \cdot 10^{-19} \text{J}$	$50 \cdot 10^{-19} \text{J}$	$500 \cdot 10^{-19} \text{J}$	$5 \cdot 10^{-18} \text{J}$
168	2	4	3	$2 \cdot 10^{-17} \text{J}$ energiyali fotoning qanday nurga taluqli ekanligini aniqlang	$9.97 \cdot 10^{-9} \text{m}$	$9.97 \cdot 10^{-7} \text{m}$	$9.97 \cdot 10^{-6} \text{m}$	$9.97 \cdot 10^{-3} \text{m}$
169	2	4	3	$3 \cdot 10^{-23} \text{J}$ energiyali fotonning qanday nurga taluqli ekanligini aniqlang	$6.65 \cdot 10^{-3} \text{m}$	$5 \cdot 10^{-7} \text{m}$	$6.65 \cdot 10^{-15} \text{c}^{-1}$	$5 \cdot 10^{-2} \text{m}$
170	2	4	3	2.5eV energiyali kvantning chastotasini aniqlang.	$0.6 \cdot 10^{15} \text{c}^{-1}$	$6 \cdot 10^{-12} \text{c}^{-1}$	$6 \cdot 10^{-10} \text{c}^{-1}$	$6 \cdot 10^{10} \text{c}^{-1}$
171	2	6	3	Quyosh nurlarini λ q5000 \AA ga to'g'ri keladi. Absolyut qora jism deb xisoblab yoritilganligi aniqlansin	$64 \text{MwG} \cdot \text{m}^2$	$640 \text{MwG} \cdot \text{m}^2$	$6400 \text{MwG} \cdot \text{m}^2$	$6.4 \text{MwG} \cdot \text{m}^2$
172	3	1	1	Quyosh nurlarini maksimal spektr energiya zichligi λ q5000 \AA ga to'g'ri keladi. Absolyut qora jim deb hisoblab energiya oqimini hisoblang	$4 \cdot 10^{26} \text{w}$	$4 \cdot 10^{23} \text{Qw}$	$4 \cdot 10^{20} \text{w}$	$4 \cdot 10^{15} \text{w}$
173	3	1	1	Absolyut qora jism uchun Stefan-Bolsman qonuni formulasini ko'rsating. $\delta = 5.67 \cdot 10^{-8} \text{wG} \cdot (\text{m}^2 \text{k}^4)$	$I_q \delta T^4$	$I_q \alpha T^4$	$I_q \alpha \delta T^4$	$I_q \delta T^{-1}$
174	3	1	1	Anod kuchlanish 50.0 kW bo'lganda rengen trubkasi anod iga yetib bo'ayotgan elektron tezligi qanday bo'ladi	$400 \text{MmG} \cdot \text{s}$	$132 \text{MmG} \cdot \text{s}$	$1.30 \text{MmG} \cdot \text{s}$	$0.128 \text{MmG} \cdot \text{s}$
175	3	1	1	Elektron nq3 bo'lgan uyg'otgan xolatiga joylashgan vodorod atomidan turli energiyali nechta foton nurlanishi mumkin ?	3	1	2	To'g'ri javob yo'q

176	3	1	1	550nm energiyali nurning xona temperaturasiidagi kislorod malekulasining ilgarilanma xarakatidagi kinetik energiyasidan necha marta katta ?	6	36	0.36	0.6
177	3	2	1	Yadro sonlarining yo'nalishini o'zgartirishga sarf bo'ladigan energiyasoxasida bo'ladi?	Radioto'lqinlar	Infra qizil	Ultra binafsha	To'g'ri javob yo'q
178	3	2	1	Atomning planetar modeli kim tomonidan taklif etilgan.	E.Rezorford	Sh.Kerlon	I.Nyuton	K.Tomson
179	3	2	1	Borning birinchi pasto'latining tarifi berilgan javobni toping?	Atom muayyan energiyaga mos keladigan statsionar yoki kvant xolatlaridagina bo'ladi a tom statsionar xolatda nur chiqarmaydi.	Atom massasi asosan yadroda to'plangan	Atom yadro va uning atrofida electron qobiqdan iborat bo'ladi	Atom yadrodan va neytrondan iborat
180	3	3	1	Atom yadrosi qanday tuzilgan ?	Proton va neytron	Elektron va proton	Neytron va elektron	Ion va elektron
181	3	3	1	Isitilgan modda o'zidan chiqaradigan elektromagnit to'lqinlar majmuasiga... deb ataladi?	nurlanish	dispersiya	issiqlik	difraksitsya
182	2	5	2	Yorug'likning suniy manbalarini toping.	Elektr lampa, gazli lampa	Chaqmoq fonar yonar baliq	Gulxan yulduzlar yonar baliq	Elektr lampa gulxan quyosh
183	2	5	2	Spektrning ko'zga ko'rinadigan soxasini o'rganishda qanday asboblardan foydalaniladi?	speutrosko'p	telesko'p	mikrosko'p	analizator
184	2	5	2	Borning ikkinchi pasto'latini to'g'ri javobini toping?	Atom katta energiyali statsionar xolatdan kichik	Atom massasi asosan yadroda to'plangan	Atom yadrosi proton va neytrondan iborat	Atom statsionar xolatda yorug'lik chiqarmaydi?

					energiyali xolaga o'tganda yorug'lik nurlanishi bo'ladi?	bo'ladi		
185	2	5	2	Elektronning massasi qanchaga teng?	$9,1 \cdot 10^{-31}$ kg	$1,673 \cdot 10^{-27}$ kg	$1,66 \cdot 10^{-31}$ kg	$1,671 \cdot 10^{-27}$ kg
186	2	6	2	Eng kichik bo'lgan elementar zarracha elektronning zaryad miqdori qanchaga teng?	$-1,6 \cdot 10^{-19}$ kl	$1,6 \cdot 10^{-19}$ kg	$1,6 \cdot 10^{-17}$ kg	$-1,6 \cdot 10^{-17}$ kg
187	2	2	3	Elektronning spini qancha ekanligini ko'rsating?	$\pm 1G'2$	$1G'2$	$-1G'2$	1
188	2	4	3	Litiy atomida nechta elektron borligini ko'rsating?	3	2	1	4
189	1	3	2	Atomning shartli birinchi, ikkinchi uchinchi va to'rtinchi orbitalarida elektron xarakat qilmoqda. Eng katta tezlikka ega bo'lgan orbitani ko'rsating?	1	2	3	4
190	1	3	2	Simob atomi izolyatsiyalangan, tinch xolatda, ν chastotali va λ - tulkin uzunligiga ega foton chikaradi. Simob atomidan foton chikkanda tezda	*elektron chikaradi	ionlashadi	asosiy xolatga utadi	yukori energetik satxga kutariladi
191	1	3	2	Sindirish ko'rsatkichi n-hisobga olinganda Vulf-Brett formula-sini umumiy ko'rinishi qanday	* $2d\sqrt{n^2 - \cos^2 \Theta} = k\lambda$	$2d\sqrt{(n^2 + \cos^2 \Theta) - \cos^2 \Theta} = k\lambda$	$(n^2 - \cos^2 \Theta) = k\lambda$	$\sqrt{(n^2 + \cos^2 \Theta)} = k\nu$
192	1	3	2	Spektroskopiyada atom tashqi (valent) elektronlarning holatlari tomning qanday kvant soni bilan xarakterlanadi	*Orbital kvant soni (ℓ)	Bosh kvant soni (n)	Orbital magnit kvant soni (m_ℓ)	Spin magnit kvant soni (m_s)
193	1	5	2	Spin xarakteristikalarini hisobga olmasak, tizimning boshlang'ich va oxirgi holatlari nechta kvant soni bilan aniqlanadi	*Uchta (n, ℓ, m_ℓ)	Ikkita (n, ℓ)	Bitta (n)	To'rtta (n, e, m_s, m_ℓ)
194	1	2	3	Tashqi fotosamara deb nimaga aytiladi	*lektronlar metall dan tashqariga ajralib chiqsa	Fotopozitronlar metall dan tashqariga ajralib chiqsa	Fotoelektronlar metall dan tashqariga ajralib chiqsa	Fotoprotonlar moddadan tashqariga ajralib chiqsa
195	1	2	3	Tashqi fotosamara uchun Eynshteyn formulasini to'g'ri berilganini ko'rsating	* $h\nu = A_i + \frac{m_e g^2}{2}$	$h\nu = A_i + mgh$	$h\nu = A_i - \frac{m_e g^2}{2}$	$h\nu = A_i + E$

196	1	2	3	Termoemission samara qachon vujudga keladi	*Metalni kizdirish tufayli, elektron energiyasi tormozlovchi maydonni engish va metall tashqarisiga chiqish uchun etarli bulsa	Metalni qizdirish tufayli, elektron energiyasi tormozlovchi maydonni engi olsa	Metalni sovutish tufayli, elektron energiyasi tormozlovchi maydonni engi olmasa va metaldan tashkariga chikish uchun etarli bulmasa	Metalga yoruglik nuri tushishi tufayli,elektron energiyasi tormozlovchi maydonni engish va metal tashkarisiga chikish uchun etarli bulsa
197	1	4	3	Tormozlanishdagi rentgen nurlanish qanday spektr beradi	*Tutash	Uzlukli	Tutash va uzlukli	Yalpi
198	1	7	3	Tunnel samarasining ta'rif qaysi birida to'g'ri berilgan	*Zarralarning potentsial tusiqdan sizib utish xodisasiga Tunnel samarasi deyiladi	Zarralarning potentsial tusiq balandligidan utishiga tunnel Samarasi deyiladi	Zarralarning potentsial tusikdan uta olmay potentsial chuqurlik ichida qolib ketishiga tunnel samarasi deyiladi	Og'ir yadrolarning potentsial tusiq balandligidan sakrab o'tish hodisasiga tunnel samarasi deyiladi.
199	2	1	1	Tushaetgan va sochilgan rentgen nurlari tulkin uzunliklari farki $\Delta\lambda = \lambda^1 - \lambda$ ning sochilish burchagiga bog'liqligi qaysi formulada to'g'ri berilgan	* $\Delta\lambda = 2K \sin^2\left(\frac{\Theta}{2}\right)$	$\Delta\lambda = 2K \sin^2(\Theta)$	$\Delta\lambda = 4K \sin(\Theta)$	$\Delta\lambda = 4K \sin(\Theta/2)$
200	2	1	1	To'lqin funktsiyaning fazoviy qismi uchun spinlari parallel holatni ko'rsating.	* $\psi_{\uparrow\uparrow} = \psi_A = N_A \left[\psi_a(r_1) \psi_b(r_2) - \psi_a(r_2) \psi_b(r_1) \right]$	$\psi_{\uparrow\uparrow} \Rightarrow \psi_A = N_A \left[\psi_a(r_1) \psi_b(r_2) - \psi_a(r_2) \psi_b(r_1) \right]$	$\psi_{\uparrow\uparrow} \Rightarrow \psi_A = N_A \left[\psi_a(r_1) \psi_b(r_2) - \psi_a(r_2) \psi_b(r_1) \right]$	$\psi_{\uparrow\uparrow} \Rightarrow \psi_A = N_A \left[\psi_a(r_1) \psi_b(r_2) - \psi_a(r_2) \psi_b(r_1) \right]$

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Guliston davlat universiteti

Fizika kafedrası



Atom fizikasidan masalalar to'plami

Bilim sohasi:	100000 - Fan
Ta'lim sohasi:	140000 - Tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5140200 - Fizika

G u l i s t o n – 2 0 1 8

Atom fizikasidan masalalar to'plami o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan _____ 2017 yil tasdiqlangan fizika fani namunaviy dasturi (№ _____) talablari asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi: Abdullayev A. – GulDU “Fizika” kafedrası texnika fanlari nomzodi, katta o'qituvchi.

Taqrizchilar: f.m.f.n., dots. G'. Rahmonov. O'zMU Yarim o'tkazgichlar va polimerlar fizikasi kafedrası.

R.Elmurodov - GulDU “Fizika” kafedrası dotsenti, fizika -matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Atom fizikasidan masalalar to'plami o'quv qo'llanmasi Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan (____ bayonnoma _____ 2018 yil) ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan.

A.Abdullayev. Atom fizikasidan masalalar to'plami o'quv qo'llanma. Guliston shahri. 2018 y. b.

Atom fizikasidan masalalar to'plami o'quv qo'llanma 5140200-fizika ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan bo'lib, mazkur qo'llanmada Atom fizikasidan masalalar kiritilgan. Bu masalalar to'plamida fotonlarning xususiyatlari, uning modda bilan o'zaro ta'siri nazariyasining asosiy tushunchalariga doir masalalar echish keltirib o'tilgan. Fan va texikaning hozirgi vaqtda tez rivojlanayotgan sohalaridan biri atom fizikaning erishgan yutuqlari bo'yicha masalalar kiritilgan. Yorug'lik nurlarining to'lqin va zarrachalar xususiyati, tabiati hozirgi zamon fizikasida tutgan o'rni, bu sohadagi bilimlarning fan va texnikadagi yutuqlari masalalarda atroflicha yoritilgan. Atom fizikasidan masalalar to'plamining bu nashrida har bir bo'limga tegishli masalalarni alohida berilgan. Har bir bo'limga tegishli asosiy formulalar, uslubiy ko'rsatmalar va masalalarni yechishga doir misollar keltirilgan. O'quv qo'llanma, universitetda fizika mutaxassisligi bo'yicha o'qiyotgan talabalar, hamda maktab, litsey o'qituvchilari va o'quvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu kitob haqidagi fikr va mulohazalarni yuborgan kitobxonlarga muallif o'z minnatdorchiligini izhor qiladi.

Ushbu qo'llanma Guliston davlat universiteti ilmiy kengashi tomonidan (16 iyun' 2018 yil 10- sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etildi.

Taqrizchilar: f.m.f.n., dots. G'. Rahmonov. O'zMU Yarim o'tkazgichlar va polimerlar fizikasi kafedrası.

f.m.f.n., dots. R. Elmurodov GulDU Fizika kafedrası.

А. Абдуллаев. Сборник задач по атомной физике для студентов университета физической специальности по предмету Атомная физика. г. Гулистан, 2018. с.

Данное учебно-методическое пособие, предназначен для студентов университета физической специальности, включает в себе теоретические основы курса, а также описательный материал. Задачи, относящиеся к теоретической части, в большинстве вычислительные. Это связано с тем, что в теоретическую часть включаются основные количественные законы и понятия.

Рецензенты: к.ф.м.н., доц. Г.Рахмонов НУУз кафедра Полупроводника и полимерная физика.

к.ф.м.н., доц. Р.Ельмуродов, ГулГУ кафедра Физика.

Mundarija

So'z boshi.....	5
1. Nurlanish fizikasi.....	20
2. Absolyut qora jism.....	20
3. Plank qonuni	21
4. Vinning siljish qonuni.....	22
5. Stefan-Bol'sman qonuni.....	23
6. Radiassion xususiyatlar va xislatlar.....	27
7. Integral radiassion xossalari.....	28

1. Nurlanish fizikasi

Asosiy formulalar

Bu bo'limdagi masalalar mavzular bo'yicha guruhlariga ajratilgan, bulardan uchitasi EHM da yechishga mo'ljallangan. Ularni yechish uchun mahsus dastur kerak emas.

1.1.Absolyut qora jism

Hamma sirtlar ham bir hil isitilganda va bu haroratda, nurlanish va yutilash miqdorini bir xil qabul qilmaydi. Berilgan harotatda jsmning sirtida maksimal miqdordagi nurlanishi yoki yutilishi energiyasiga absolyut qora sirt yoki qora jism deb ataladi. Absolyut qora jism –bu etalon bo'lib, uning yordamida boshqa nurlanishlar taqqoslanadi.

1. 2.Plank qonuni

Qora jism sirti T haroratgacha qizdirilganda jism sirtidan fotonlar chiqadi.1900 yilda M.Plank bu fotonlarning taqsimot energiyasi va sirt haroratiga bog'lanishni aniqladi. $E_{b_\lambda}(T) = \frac{C_1}{\lambda^5 (e^{C_2/\lambda T} - 1)}$, (1)

bu yerda E_{b_λ} -monoxromatik oqim zichligi, yoki T haroratli qora jismning spektral nurlanishi, uning birligi Vt/m^3 ; $C_1=3,7418 \cdot 10^{-16} \text{ Vt} \cdot \text{m}^2$ -nurlanishning birinch doimiysi; $C_2=1,4388 \cdot 10^{-2} \text{ m} \cdot \text{K}$ -nurlanishning ikkinchi doimiysi. Qora jism uchun nurlanishning monoxromatik oqim zichligining harorati va to'lqin uzunligi orasidagi bog'lanishi (1) formula orqali ifodalanadi va Plank qonuni deb ataladi. Plank g'oyasi elektromagnit energiya butunlay aniq alohida porsiya ε larda yoki kvantlarda chiqishi va tarqalishi mumkin. Kvant energiyasi kattaligi $\varepsilon, 2\varepsilon, 3\varepsilon$ va $n\varepsilon$ bo'lishi mumkin. Kvant energiyasi miqdori nurlanish chastotasiga to'g'ri proporsional

$$\varepsilon = h\nu = \frac{c}{\lambda}. \quad (2)$$

c – yorug'lik tezligi, $h=6,62 \cdot 10^{-34} \text{ J} \cdot \text{s}$ – Plank doimiysi, λ - yorug'lik to'lqin uzunligi. Masalan: yashil yorug'lik $\lambda=0,555 \text{ mkm}$

$$\varepsilon = \frac{hc}{\lambda} = \frac{6,62 \cdot 10^{-34} \cdot 3 \cdot 10^8}{5,55 \cdot 10^{-7}} = 3,6 \cdot 10^{-19} \text{ j}.$$

Barcha yorug'lik to'lqin uzunliklari uchun kvant energiyasini topish mumkin. Plank issiqlik nurlanishning kvant xarakteri to'g'risidagi tasavvurga asoslangan holda, absolyut qora jism spektral nur chiqarish qobiliyatini quyidagi ifoda orqali olgan.

$$E_\lambda = \frac{2\pi hc^2}{\lambda^5} \cdot \frac{1}{\frac{hc}{e^{k\lambda T} - 1}}, \quad dE_{b_\lambda} / d\lambda = \frac{d}{d\lambda} \cdot \left[\frac{C_1}{\lambda^5 (e^{C_2/\lambda T} - 1)} \right]_{T=\text{const}} = 0 \quad (1')$$

k – Bol'tsman doimiysi, T – absolyut temperatura, e – natural logarifm asosi. Plank formulasi tajriba natijalariga mos keladi, bu formuladan Stefan-Bol'tsman va Vin qonunlarini keltirib chiqarish mumkin.

1.4.3. Vinning siljish qonuni

Berilgan haroratda qora jism uchun nurlanishning oqim zichligi to'liq uzunligining maksimal qiymatini (1) Plank qonuni formulasi orqali ifodalash mumkin bo'ladi.


$$dE_{b_\lambda} / d\lambda = \frac{d}{d\lambda} \cdot \left[\frac{C_1}{\lambda^5 (e^{C_2/\lambda T} - 1)} \right]_{T=\text{const}} = 0. \quad (3)$$

Muvozanatli issiqlik nurlanishi energiyasining to'liq uzunliklar bo'yicha taqsimlanishini nemis fizigi V.Vin 1893 yilda nazariy jihatdan o'rgandi. Vin o'z izlanishlari natijalari asosida quyidagi xulosaga keldi: absolyut qora jism issiqlik nurlanishi energiyasining to'liq uzunliklar bo'yicha taqsimlanishi zichligida maksimum bo'lib, bu maksimum λ_{\max} to'liq uzunligiga to'g'ri keladi va quyidagi munosabat orqali aniqlanadi. $\lambda_{\max} T = b = 2,898 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K}$, (4)

(3) formulada λ_{\max} - absolyut qora jism nurlanishi energiyasining maksimumdagi to'liq uzunligi, T - absolyut qora jismning absolyut harorati, b - o'zgarmaskattalik bo'lib, Vin doimiyligi deb ataladi. b - ning tajribalar asosida aniqlangan qiymati $b = 2,898 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K}$. Absolyut qora jismning maksimum nurlanishiga to'g'ri kelgan to'liq uzunlik uning absolyut haroratiga teskari proportsionaldir:

$$\lambda_{\max} = \frac{b}{T}. \quad (5)$$

Vin qonunini izohlash uchun grafikda, ko'mirning turli haroratlarda nurlanish spektridagi energiya taqsimoti berilgan. Grafikdan ko'rinadiki harorat o'rtishi bilan nurlanish qobiliyati orta boradi. λ_{\max} to'liq uzunligi esa kamayadi, taqsimot egri chiziqni maksimumi chapga siljiydi (4-rasm).




Vin qonuni orqali quyoshning haroratini aniqlash mumkin. Quyoshning tashqi sirtining harorati $T = 5800 \text{ K}$ maksimum energiyasining to'liq uzunligi

$\lambda_{\max} = 5,2 \cdot 10^{-7} \text{ m}$ ga mos keladi. Demak, quyosh sirti harorati 5800 K ga teng ekan. Stefan–Boltsman va Vin siljish qonunlari absolyut qora jism nurlanishining xususiy qonunlaridir. Ular turli haroratlarda energiyani to'liq uzunliklari bo'yicha taqsimlanishining manzarasini to'liq bermaydi. Shuning uchun o'tgan asrlarda ko'p urinishlardan so'ng 1900 yilga kelib nemis olimi Plank tomonidan

$$\varepsilon_{\lambda} = f(\lambda, T), \quad (6)$$

ko'rinishdagi formulani nazariy ravishda olishga muvassar bo'lgan.

1.4.4. Stefan-Bol'sman qonuni



1879 yil avstriyalik fizik Stefan tomonidan eksperimental ravishda olingan natijalar va 1884 yil Bol'tsman tomonidan nazariy ravishda olingan natijalardan foydalanib tushuntirilgan. Bu ishlariga asosan absolyut qora jism nurlanish spektridagi energiya taqsimoti o'rganilgan, absolyut qora jism nurlanish spektridagi energiya taqsimoti (5-rasmda) grafigi keltirilgan. Bunda absolyut qora jismning nurlanish maksimumi $\lambda_{\max} = 3,2 \cdot 10^{-6} \text{ m}$ da infraqizil nurlanishga mos keladi. $T = 1600 \text{ K}$ da λ_{\max} ko'zga ko'rinuvchi sohaga o'tadi. Jismning to'la nur chiqarish qobiliyati - ε ning haroratga bog'liqligi Stefan –Bol'tsman qonunini ifodalaydi. Bu qonun ta'rif: Absolyut qora jismning to'la nur chiqarish qobiliyati uning absolyut haroratining to'rtinchi darajasiga proporsionaldir.

$$\varepsilon = \sigma T^4$$

Bu yerda σ - Stefan –Bol'tsman doimiysi: $\sigma = 5,67 \times 10^{-8} \text{ Wt} \cdot \text{m}^{-2} \cdot \text{K}^{-4}$.

$$\varepsilon(T) = \int_0^{\infty} \varepsilon(\nu, T) \cdot d\nu = \sigma T^4, \quad (7)$$

$\varepsilon(\nu, T)$ -absolyut qora jism uchun nurlanish oqim zichligi. $[\varepsilon] - \text{J/m}^2 \cdot \text{s}$. $\sigma = \left(\frac{\pi}{C_2}\right)^4 \frac{C_1}{15} = 5,67 \cdot 10^{-8} \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot \text{K}^4)$.

Masalalar yechishga doir misollar

21- masala. Quyosh ($T=5800 \text{ K}$) va nakalli lampani ($T=2800 \text{ K}$) qora jism deb qarab, bu ikki nurlanish manbalarining quyidagi parametrlari hisoblansin:

- a) nurlanishning integral oqim zichligi;
- b) monoxromatik nurlanishning maksimal oqim zichligi;
- v) nurlanishning maksimal oqim zichligidagi to'liq uzunligi;
- g) spektrning ko'zga ko'rinuvchi sohasi uchun nurlanishning to'liq energiyasi qancha qismini tashkil qilishi aniqlansin.

Yechilishi.

a) Nurlanishning integral oqim zichligi Stefan – Bol'tsman qonunini (7) formula orqali ifodalaydi:

Quyosh uchun $E_b(T) = (5,67 \cdot 10^{-8})(5800)^4 = 6,42 \cdot 10^7 \text{ Vt} / \text{m}^2$.

Lampa uchun $E_b(T) = (5,67 \cdot 10^{-8})(2800)^4 = 3,49 \cdot 10^7 \text{ Vt} / \text{m}^2$.

b) Qora jism sirti uchun monoxromatik nurlanishning maksimal oqim zichligi quyidagi formula orqali ifodalaydi:

Quyosh uchun $(E_{b_\lambda})_{maks} = 1,287 \cdot 10^{-5} T^5 = (1,287 \cdot 10^{-5})(5800)^5 = 8,45 \cdot 10^{12} \text{ Vt} / \text{m}^3$.

Lampa uchun $(E_{b_\lambda})_{maks} = 1,287 \cdot 10^{-5} T^5 = (1,287 \cdot 10^{-5})(2800)^5 = 2,21 \cdot 10^{12} \text{ Vt} / \text{m}^3$.

v) nurlanishning maksimal oqim zichligidagi to'liq uzunligi Vin qonuniga asosan aniqlanadi.

Quyosh uchun $\lambda_{\max} = \frac{b}{T} = \frac{2,898 \cdot 10^{-3}}{5800} = 5,00 \cdot 10^{-7} \text{ m}$, ko'zga ko'rinuvchi soha.

Lampa uchun $\lambda_{\max} = \frac{b}{T} = \frac{2,898 \cdot 10^{-3}}{2800} = 1,04 \cdot 10^{-6} \text{ m}$, spektrning infraqizil sohasi.

g) spektrning ko'zga ko'rinuvchi sohasi ($3,8 \cdot 10^{-7} \text{ m} < \lambda < 7,6 \cdot 10^{-7} \text{ m}$) oralig'ida bo'lib, uning radiasion funksiyasini 1-jadvalidan foydalanib aniqlanadi.

Quyosh uchun $\lambda_1 T = (3,8 \cdot 10^{-7}) 5800 = 2,204 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K}$,
 $\lambda_2 T = (7,6 \cdot 10^{-7}) 5800 = 4,408 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K}$.

$$[\text{To'liq energiyaning ko'zga ko'rinuvchi sohadagi nurlanishning ulushi}] = \frac{E_b(0 \rightarrow \lambda_2 T) - E_b(0 \rightarrow \lambda_1 T)}{\sigma T^4} = 0,5500 - 0,1017 = 0,4483 = 44,83\%.$$

Lama uchun $\lambda_1 T = (3,8 \cdot 10^{-7}) 2800 = 1,064 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K},$
 $\lambda_2 T = (7,6 \cdot 10^{-7}) 2800 = 2,128 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K}.$

$$[\text{To'liq energiyaning ko'zga ko'rinuvchi sohadagi nurlanishning ulushi}] = \frac{E_b(0 \rightarrow \lambda_2 T) - E_b(0 \rightarrow \lambda_1 T)}{\sigma T^4} = 0,0886 - 0,0009 = 0,0877 = 8,77\%.$$

Mustaqil yechish uchun quydagi masalalarni tavsiya qilinadi

22- masala. Qora jism sirtining harorati: a) 100 K b) 500 K v) 1000 K g) 5000 K bo'lganda monohromatik nurlanish oqim zichligini maksimal qiymatini hisoblang.

23-masala. Qora jism sirtining maksimal nurlanishidagi oqim zichliklari quydagi harorat larga teng bo'lganda: a) 100 K b) 500 K v) 1000 K g) 5000 K, ularning to'lqin uzunligi aniqlansin.

24-masala. Qora jism sirt nurlanishi monohromatik oqimining zichligi harorati 200, 1000, 5000 va 10 000 K bo'lganda bog'lanish grafigini chizing.

25-masala. Nakal lampaning tolasini harorati 3200 K ga teng bo'lib, qora jism singari nurlanadi. Chiquvchi nurlanish energiyasining qancha qism % larda: a) infra qizil sohaning to'lqin uzunligini, b) ko'zga ko'rinuvchi soha to'lqin uzunligini tashkil qiladi.

26-masala. Qora sirtini isitganda nurlanish energiyasining 40% infra qizil spektr sohasida bo'lishi uchun harorati qanday bo'lishi kerakligini aniqlang.

27-masala. Qora sirtini isitganda nurlanish energiyasining 20% ko'zga ko'rinuvchi spektr sohasida bo'lishi uchun harorati qanday bo'lishi kerakligini aniqlang.

28-masala. Fotosofitli vol'fram tolali lampaning harorati 3500 K. Tola nurlanishini qora jism singari bo'ladi deb hisoblab, tola chqarayotgan to'liq nurlanish energiya taqsimotining ul'tra binafsha, ko'zga ko'rinuvchi va infraqizil sohalar dagimunosabatini aniqlang. Hisoblashni harorati 2500 K bo'lgan oddiy vol'fram tolalisi uchun takrorlang.

29-masala. Quyosh 1 minutda qancha miqdor energiya cniqaradi? Quyosh nurlanishini absolyut qora jismga yaqin deb hisoblansin. Quyosh sirtining harorati 5800 K deb qabul qilinsin.

30-masala.Quyosh doimiysi kattaligi, yani Quyoshning o'z nurlariga perpendikulyar holda va o'zidan Yergacha bo'lgan masofaga baravar uzoqlikda turgan 1 sm^2 yuz orqali har minutda yubarayotgannur energiyasining miqdori topilsin. Quyosh sirtining harorati 5800 K deb qabul qilinsin. Quyosh nurlanishini absolyut qora jismga yaqin deb hisoblansin.

31-masala.Atmosfera Quyosh yuboradigan nur energiyasining 10 foizini yutadi deb hisoblab, maydoni $0,5$ ga keladigan yerning gorizontol sahni oladigan quvvati ni toping. Quyoshning ugqdan balandligi 30° . Quyosh nurlanishini absolyut qora jismga yaqin deb hisoblansin.

32-masala.Nurlanish tufayli Yer yuzasi 1 m^2 bo'lgan sirtidan har minutda $5,4 \text{ kJ}$ energiya yo'qotadi. Qanday haroratda absolyut qora jism ham shuncha energiyani nurlantiradi?

33-masala. Quyosh sirtining haroratini 5800 K ga teng deb olib, uning 1 m^2 yuzali sirtidan 1 minutda hurlanayotgan energiyani hisoblab toping. Quyosh nurlanishini absolyut qora jismga yaqin deb hisoblansin.

34-masala.Quyosh doimiysi $C=1,4 \text{ kVt/m}^2$. Quyosh nurlanishini absolyut qora jismga yaqin deb hisoblab, uning nur sochayotgan sirti haroratini toping.

35-masala.Yer yaqinida, atmosferadan tashqarida joylashgan absolyut qora plastinka sirtiga perpendikulyar tushayotgan nurlar bilan yoritiladi. Agar Quyosh doimiysi $C=1,4 \text{ kVt/m}^2$ bo'lsa plastinkaning qaror topgan haroratini aniqlang.

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Quyosh radiyasiyasining intensivligi va insolyasiya deb himaga aytiladi?
2. Quyosh doimiysi nima?
4. Quyosh radiyasiyasining sutkalik va yillik o'zgarishi nimalarga bog'liq?
5. Quyosh radiyasiyasining intensivligini o'zgarishining ahamiyati nimada?
6. Plank qonunini differensiyallash yo'li bilan Vin qonunini chiqaring.
7. Stefan – Bol'tsman doimiysi quydagiga $\sigma = \left(\frac{\pi}{C_2} \right)^4 \frac{C_1}{15}$ teng ekanligini ko'rsating.

1. 5. Radiassion xususiyatlar va xislatlar

Asosiy formulalar

Materialning sirti bilan, nurlanish energiyasini o'zaro ta'sirini miqdoriy jixatdan xarakterlaydigan kattalikka radiasion xislatlar deb ataladi. Hususiy holda nurlanish energiyasini sirtida qanday nurlanishini, qaytarishini, yutishini va o'tkazishini qobilyatini belgilaydi. Jismning nurlantirish qobilyati jism sirtining birlik yuzidan vaqt birligidagi chiqayotgan nurlanish energiyasi bilan o'lchanadi. Yutish qobilyati jism o'ziga tushayotgan nurlanishning qanday ulushini yutishini ko'rsatadi. Umumiy holda radiasion husisiatlar to'lqin uzunligi bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun sirt ko'zga ko'rinuvchi spektr sohasini yaxshi qaytaradi va

infraqizil sohada yomon qaytaradi. Sirtning to'liq uzunligi bilan bunday bog'lanishi ifodalovchi xislatlarga, monoxromatiklik, yoki, spektral' xislatlar deb ataladi. Radiasion xislatlar bundan tashqari sirtga yo'nalgan nurlanishning yo'nalishiga ham bog'liq bo'ladi. Energiya taqsimotining o'zgarishi burchak bilan bog'lansa bunday xislatga yo'nalish xislati deb ataladi. Hamma to'liq uzunligi va burchakni o'rtachalash integrallash xislatlari deb ataladi.

1.5.1. Integral radiassion xossalar

Yorug'lik nurlanish oqimining sirtga tushishini qarab chiqaylik. Optikadan bizga ma'lumki, Reley shartiga ko'ra, sirtagi notekisliklarning o'lchamlari unga tushayotgan yorug'lik to'liq uzunligining choragidan kichik bo'lsa, bunday sirt ko'zgu deb ataladi. Sirtning nur qaytarish koefitsienti deb, qaytgan yorug'lik energiyasini tushgan energiya miqdoriga nisbatiga (ρ) aytiladi. Bu koefitsient muhit sindirish ko'rsatgichiga bog'liq bo'ladi. Yutilgan yorug'lik energiyasini tushgan energiyaga nisbati muhitning nur yutish koefitsienti (α), o'tgan energiyani tushgan energiyaga nisbati nur o'tkazish koefitsienti (τ) deb ataladi. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra bu koefitsientlar yig'indisi 1 ga teng.

$$\rho Q + \alpha Q + \tau Q = Q, \quad (1)$$

$$\rho + \alpha + \tau = 1. \quad (2)$$

Ko'p hollarda sirt shaffof bo'lmaydi. Bu degan so'z, u tushayotgan nurlanishni o'tkazmaydi degani. Shaffof bo'lmagan sirtlar uchun $\tau = 0$ va (2) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi $\rho + \alpha = 1$. (3)

Agar sirt ideal qaytaruvchi bo'lsa, unda hamma tushuvchi nurlar qaytadi, yoki

$$\rho = 1, \quad (4)$$

va ideal qaytqruvchi sirtlar uchun energiya balansi quyidagicha

$$\text{bo'ladi} \quad \alpha = \tau = 0. \quad (5)$$

Qora jism tushuvchi nurlanishning maksimal miqdorini yutadi, yoki

$$\alpha = 1, \quad (6)$$

va shunga ko'ra qora jism $\rho = \tau = 0$. (7)

Boshqa juda kerakli integral radiasion xususiyatlardan birijismning nurlanish qobilyatidir (qorqlik darajasi). Integral nurlanish qobilyatining matematik aniqlashda

$$\varepsilon = \frac{E(T)}{E_b(T)} = \frac{E(T)}{\sigma T^4}, \quad (8)$$

Ifodadan foydalanamiz. Agar sirt qora jismdan iborat bo'lsa, $E(T) = E_b$; $\varepsilon = \alpha = 1, 0$.

Yorug'lik har xil ranglardan, ya'ni to'liq uzunliklari 360-760 nm (nanometr $1\text{nm} = 1 \cdot 10^{-9} m$, bo'lgan ko'zga ko'rinuvchi, 360 nm dan kam (ultrabinafsha) va 760 nm dan yuqori (infraqizil) bo'lgan ko'zga ko'rinmas nurlardan tashkil topgan. Bu spektr

bo'ylab yorug'likning energiya taqsimoti ham har xil bo'ladi. Yorug'lik energiyasining 33% ko'zga ko'rinuvchi 400-700 nm oraliqqa to'g'ri kelsa, deyarli 48% infraqizil (700-2000 nm) nurga to'g'ri keladi. Shuning uchun infraqizil sohaga mos kelaigan energiyadan foydalanish maqsadga muvofiq keladi. Bu borada geliotexnikada oddiy shishani ishlatish o'rindir. Chunki, shisha "issiq quti" ichidagi issiqlikni saqlash, yorug'lik nurini quti ichiga o'tkazish kabi vazifalardan tashqari undagi issiqlik qabul qilgich - qora rangli tunuka yoki quvurlar qizishi natijasida chiqayotgan infraqizil to'lqinlarni tashqariga o'tkazmaydi. Natijada quti ichida "issiqlik effekti" nomi bilan yuritiladigan effekt hisobiga uning ichidagi harorat tashqi muhitdagiga nisbatan 2-3 marta yuqori bo'ladi.

Shishaning ushbu xususiyatini yanada oshirish maqsadida keyingi yillarda uning sirtiga selektiv qatlam qoplash ishlari olib borilmoqda. Selektiv material sifatida qalay (SnO_2), kadmii (CdO), indiy (In_2O_3) oksidlari va boshqalar ishlatilib, selektiv qatlam qalinligi $0,5 \cdot 10^{-6}$ m chamasida bo'ladi. Shisha sirtidagi selektiv qatlam nur yutuvchi filtr sifatida emas, balki nur qaytaruvchi omil vazifasini o'taydi. Plyonkalar issiqxona va parniklarda shaffof qoplam sifatida ishlatiladi.

Masalalar yechishga doir misollar

36-masala. Sirtning o'zgarmas monoxromatik $4 \cdot 10^{-7} \leq \lambda \leq 4 \cdot 10^{-6}$ to'lqin uzunligi sohasida nur yutish qobiliyati 0,6 ga teng. Boshqa hamma to'lqin uzunliklarida yutilish qobiliyati nolga teng. Monoxromatik nur chiqarish va nur yutish qobiliyatlari teng deb qaraladi. Integral yutish va nur chiqarish qobiliyatlarini hisoblang, sirt harorati 3000 K, quyidagi ikki hol uchun qarang: a) qora sirtan tushuvchi nurlanish 3000 K; b) qora sirtan tushuvchi nurlanish 1000 K bo'lganda. **Yechish.** Sirtning integral nurlanish qobiliyati

$$\varepsilon = \frac{E(T)}{E_b(T)} = \frac{E(T)}{\sigma T^4} = \frac{1}{\sigma T^4} \int_0^\infty \varepsilon_\lambda E_{b_\lambda}(T) d\lambda = \frac{0,6}{\sigma T^4} \int_{4 \cdot 10^{-7}}^{4 \cdot 10^{-6}} E_{b_\lambda}(T) d\lambda = 0,6 \left[\frac{E_b(0 \rightarrow \lambda_2 T)}{\sigma T^4} - \frac{E_b(0 \rightarrow \lambda_1 T)}{\sigma T^4} \right] = 0,6(0,9452 - 0,0021) = 0,566,$$

bunda ikki aniq integralni hisoblashda $\lambda T = 1,2 \cdot 10^{-3} \text{ mK}; 1,2 \cdot 10^{-2} \text{ mK}$ qiymatlarni radiasion funksiya 4-jadvaldan olinadi. Sirtning nurlanish qobiliyati tushuvchi nurga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli nurlanish qobiliyati ikki holda ham bir xil boladi. Sirtning yutish qobiliyati tushuvchi qora jism nurlanisi harorati 3000 K bo'lganda

$$\alpha = \frac{\int_0^\infty \alpha_\lambda Q_\lambda d\lambda}{\int_0^\infty Q_\lambda d\lambda} = \frac{0,6 \int_{4 \cdot 10^{-7}}^{4 \cdot 10^{-6}} E_{b_\lambda}(T) d\lambda}{\int_0^\infty E_{b_\lambda}(T) d\lambda} = 0,6 \left[\frac{E_{b_\lambda}(0 \rightarrow \lambda_2 T)}{\sigma T^4} - \frac{E_{b_\lambda}(0 \rightarrow \lambda_1 T)}{\sigma T^4} \right].$$

Integrallar nurlanish qobiliyatini hisoblagan qiymatga teng, shu sababli

$$\alpha = 0,6(0,9452 - 0,0021) = 0,566.$$

Sirtning yutish qobilyati tushuvchi qora jism nurlanisi harorati 1000 K bo'lganda

$$\alpha = 0,6 \left[\frac{E_{b_\lambda}(0 \rightarrow \lambda_2 T)}{\sigma T^4} - \frac{E_{b_\lambda}(0 \rightarrow \lambda_1 T)}{\sigma T^4} \right] = 0,6(0,4809 - 0) = 0,289.$$

Bu yerda aniq integralni hisoblashda $\lambda_2 T = (4 \cdot 10^{-6})1000 = 4 \cdot 10^{-3} mK$, $\lambda_1 T = 4 \cdot 10^{-4} mK$.

37-masala. Avtomobil' bekatda quyosh tarafga qarab to'xtadi. Mashinaning oldingi oynasining o'tkazish qobilyati to'lqin uzunligi $3 \cdot 10^{-7} \leq \lambda \leq 3 \cdot 10^{-6} m$ bo'lgan sohada 0,92 ga teng va boshqa hamma to'lqin uzunligida shaffof emas. Avtomobil' salonining harorati 300 K bo'lgan qora jism deb qaraladi. Quyoshning harorati 5800 K bo'lgan qora yorug'lik manba deb qaraladi, tushuvchi nurlanishning oqim zichligi 1100 Vt/m^2 .

a) quyosh nurlanishi uchun oldingi oynaning integral o'tkazish qobilyati aniqlansin; b) avtomobilning saloni uchun oldingi oynaning integral o'tkazish qobilyati aniqlansin; c) shisha orqali o'tuvchi quyosh nurlanishining oqim zichligi aniqlansin; g) shisha orqali o'tuvchi nurlanish energiyasining oqim zichligini avtomobil saloni uchun hisoblang.

Yechish. Integral o'tkazish qobilyati quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$\tau = \frac{\int_0^\infty \tau_\lambda Q_\lambda d\lambda}{\int_0^\infty Q_\lambda d\lambda}.$$

$$Q_\lambda = E_{b_\lambda} \text{ yoki,}$$

$$\text{Nurlanish qora jismga tushganida, } \tau = \frac{\int_0^\infty \tau_\lambda Q_\lambda d\lambda}{\sigma T^4} = \frac{0,92 \int_{3 \cdot 10^{-7}}^{3 \cdot 10^{-6}} E_{b_\lambda}(T) d\lambda}{\sigma T^4}.$$

5800 K haroratli manbaga radiassion funkssiyani tadbiq qilib quyidagini topamiz

$$\lambda_2 T = (3 \cdot 10^{-6})5800 = 1,74 \cdot 10^{-2} m \cdot K,$$

$$\lambda_1 T = (3 \cdot 10^{-7})5800 = 1,74 \cdot 10^{-3} m \cdot K,$$

$$\tau = 0,92(0,977 - 0,033) = 0,868.$$

b) harorati 300 K bo'lgan qora jism nurlanish manbai bo'lsa

$$\lambda_2 T = (3 \cdot 10^{-6})300 = 9 \cdot 10^{-4} m \cdot K,$$

$$\lambda_1 T = (3 \cdot 10^{-7}) 300 = 9 \cdot 10^{-5} m \cdot K,$$

$$\tau = 0,92(1,686 \cdot 10^{-4} - 0) = 1,55 \cdot 10^{-4}.$$

c) Shisha orqali o'tuvchi quyosh nurlanishining oqim zichligi

$$(\tau Q)_{\oplus} = 0,868 \cdot 1100 = 955 \text{ Vt} / m^2.$$

g) shisha orqali o'tuvchi nurlanish energiyasining oqim zichligini avtomobil saloni uchun hisoblashda $(\tau Q)_{salon} = (\tau E_b)_{salon} = 1,55 \cdot 10^{-4} \cdot 5,67 \cdot 10^{-8} \cdot 300^4 = 0,0712 \text{ Vt} / m^2.$

Mustaqil yechish uchun quydagi masalalarni tavsiya qilinadi

38-masala. Boshqaruv binosini tashqi ko'rinishini bezashda ikki xil materialdan birini tanlash talab qilinsin. Birinchi material tushuvchi nurlanishning 60% ni to'lqin uzunligi $0,3 \cdot 10^{-6} - 0,6 \cdot 10^{-6} m$, va 20% $0,6 \cdot 10^{-6} - 40 \cdot 10^{-6} m$ oralig'idagi intervalda o'tkazadi. ikkinchi material tushuvchi nurlanishning 40% ni to'lqin uzunligi $0,3 \cdot 10^{-6} - 2 \cdot 10^{-6} m$, va 30% $2 \cdot 10^{-6} - 30 \cdot 10^{-6} m$ oralig'idagi intervalda o'tkazadi. Boshqa hamma to'lqin uzunligida shaffof emas. Bino joylashgan joyda 80% energiya kondissionirllar yordamida havosi ishlatiladi va 20% isitgichli isitishga mo'ljallangan. Qaysi materialni tanlaysiz va nima sababdan?

39-masala. Issiqxona oynasi kvarss shishadan qoplangan, tushuvchi nurlanishning energiyasini 92% ni $0,35 \cdot 10^{-6} - 2,7 \cdot 10^{-6} m$ to'lqin uzunligi intervalida o'tkazadi. Shishani kichik va katta to'lqin uzunligida shaffof emas deb qarab, quyosh nurlanishining qancha % tuproq sirtiga yetib borishini hisoblang. Quyoshning nurlanishini qora jism nurlanishi deb qarab, harorati 5550 K deb olinsin. Agar tuproqning o'rtacha harorati 300 K va u qora jism kabi nurlanadi deb qarab, tuproqdan chiqarayotgan energiya nurlanishining qancha qismi shisha orqali atrof muhitga tarqalishini hisoblang.

40-masala. Sirtning harorati 500 K va monohromatik nurlanish qobilyati quydagiga teng

$$\varepsilon_{\lambda} = 0; \quad 0 \leq \lambda \leq 5 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\varepsilon_{\lambda} = 0,002\lambda \cdot 10^6 - 0,01; \quad 5 \cdot 10^{-6} m < \lambda \leq 100 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\varepsilon_{\lambda} = 0,19; \quad 200 \cdot 10^{-6} m < \lambda \leq 200 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\varepsilon_{\lambda} = 0; \quad 200 \cdot 10^{-6} m < \lambda < \infty,$$

bunda λ metrlarda o'lchanadi. Sirtning integral nurlanish qobilyati aniqlansin.

41-masala. Yuqorida keltirilgan masaladagi shartlarga asosan sirtning yutilish qobilyatini aniqlang, sirtga tushuvchi nurlanish qora jism kabi deb qaralib, uning harorati a) 500 K va b) 1000 K bo'lsin.

42-masala. Sirtning harorati 1000 K va monoxromatik yutilish qobilyati

$$\alpha_{\lambda} = 0; \quad 0 \leq \lambda \leq 5 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\alpha_{\lambda} = 0,5(\lambda \cdot 10^6 - 0,5); \quad 0,5 \cdot 10^{-6} m < \lambda \leq 1,5 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\alpha_{\lambda} = 0,5; \quad 1,5 \cdot 10^{-6} m < \lambda \leq 2,0 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\alpha_{\lambda} = 0; \quad 2 \cdot 10^{-6} m < \lambda < \infty,$$

bunda λ metrlarda o'lchanadi. Agar tushuvchi nurlanish manbai qora jism deb qaralsa, uning harorati a) 5000 K va b) 500 K uchun sirtning integral nurlanish qobilyati aniqlansin.

43-masala. Real sirtning monoxromatik nurlanish qobilyati quyidagicha

$$\varepsilon_{\lambda} = 0; \quad 0 \leq \lambda \leq 2 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\varepsilon_{\lambda} = 0,2; \quad 2 \cdot 10^{-6} m < \lambda \leq 8 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\varepsilon_{\lambda} = 0,4; \quad 8 \cdot 10^{-6} m < \lambda \leq 25 \cdot 10^{-6} m,$$

$$\varepsilon_{\lambda} = 0; \quad 25 \cdot 10^{-6} m < \lambda < \infty,$$

a) 800 K harorat uchun sirtning integral nurlanish qobilyati aniqlansin.

b) Agar tushuvchi nurlanish manbai qora jism deb qaralsa, uning harorati 1000 K uchun sirtning integral nurlanish qobilyati aniqlansin.

Muhokama uchun savollar va topshiriqlar

1. Nurlanishning qanday turlarini bilasiz?
2. Jismning issiqlik nurlanishi deb nimaga aytiladi?
3. Jismlarni nur chiqarish va nur yutish qobiliyati deb nimaga aytiladi?
4. Absolyut qora jism deb nimaga aytiladi?
5. Kirxgof qonunini ta'rifini ayting.
6. Kirxgof qonunining fan va texnikada ishlatilishini aytib bering.
7. Nurlanishning burchak koeffisientlari nima?
8. Qora sirtlar orasidagi nurlanishning issiqlik almashinishi qanday amalga oshadi?
9. Kulrang jismlarning orasidagi issiqlik almashinishi qanday amalga oshadi?
10. Yutiluvch muhitlarda nurlanishining uzatilishini tushuntiring?
11. Quyosh nurlanishi qanday tashkil etuvchilardan iborat bo'ladi?